

## **TALABALARDA O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga oid xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'qish kompetensiyasining shakllanishida kommunikativ, kognitiv va madaniyatlararo yondashuvlarning o'rni ko'rsatilib, zamonaviy ta'lim tizimida o'qish faoliyatining interaktiv va refleksiv xususiyatlari yoritiladi. Xorijiy tajribalar (Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya) bilan O'zbekiston oliy ta'lim tizimi amaliyoti qiyoslanadi. Natijada, o'qish kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar, o'quv muhitini individuallashtirish va refleksiv metodlardan foydalanish zarurligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish kompetensiyasi, talaba, xorijiy tajriba, milliy ta'lim, innovatsion yondashuv, refleksiya.

## **ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCES ON DEVELOPING READING COMPETENCE IN STUDENTS**

**Annotation.** This article analyzes foreign and national experiences in developing students' reading competence. The study highlights the role of communicative, cognitive, and intercultural approaches in forming reading skills, emphasizing interactive and reflective aspects of reading activities in modern education. Comparative analysis between the educational practices of the European Union, the United States, Japan, and Uzbekistan reveals effective strategies. The findings suggest that the use of innovative technologies, individualized learning environments, and reflective teaching methods significantly enhances students' reading competence.

**Keywords:** reading competence, student, foreign experience, national education, innovation, reflection.

## **АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В статье проводится анализ зарубежного и национального опыта по развитию компетенции чтения у студентов. Рассматриваются коммуникативный, когнитивный и межкультурный подходы к формированию навыков чтения, а также их интерактивные и рефлексивные особенности в условиях современного образования. Сопоставлены практики Европейского Союза, США, Японии и Узбекистана. В результате обоснована необходимость использования инновационных технологий, индивидуализации учебной среды и рефлексивных методов для эффективного развития компетенции чтения у студентов.

**Ключевые слова:** компетенция чтения, студент, зарубежный опыт, национальное образование, инновации, рефлексия.

**Kirish.** Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, interaktiv metodlar - jumladan, klaster, insert, "fikrlar buluti", "tushunish jurnalini yuritish" kabi strategiyalar - til o'rganuvchilarning o'qish tezligi, mazmunni anglash, kontekstni tahlil qilish va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarador natijalar bermoqda. Ayniqsa, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) doirasida o'qish malakalarini A2-C1 darajalarda rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar asosiy metodik tamoyilga aylangan.

Adabiyotlar tahlili. W.Grabe ikkinchi tilda o'qish jarayonining murakkabligini kognitiv jarayon sifatida ko'rib, mazmunni anglash, so'z boyligini faol ishlatish, va kontekstual tahlil qilishni o'qish malakasining asosi sifatida ko'rsatadi. Z.Dörnyei esa til o'rganishda motivatsiya va interfaol metodlarning o'zaro aloqasini, ularning receptive faoliyatga - xususan o'qishga - ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, Nation tadqiqotlarida chet tilida o'qish malakasi, ayniqsa, akademik matnlar bilan ishlashda asosiy kompetensiyalardan biri sifatida baholangan. Rossiyada esa rus tilini chet tili sifatida o'qitishda interaktiv texnologiyalarni qo'llashga oid bir qator ilmiy maktablar vujudga kelgan. L.V.Elkonin, N.I. Gez, E.I.Passov, T.G.Rumyantseva, V.V.Safonova kabi olimlar interaktiv metodlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rniga alohida urg'u berib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. O'qish kompetensiyasi bugungi globallashtirish ta'lim muhitida eng muhim funksional savodxonlik ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat matnni texnik jihatdan o'qiy olish, balki uni tushunish, tahlil qilish, baholash, tanqidiy fikr yuritish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro miqyosda o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini aniqlash bo'yicha asosiy baholash tizimi bu - PISA (Programme for International Student Assessment) bo'lib, u 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini aniqlashga qaratilgan.

PISA tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda yetakchi mamlakatlar (Finlyandiya, Janubiy Koreya, Estoniya, Singapur) quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

1. Kontekstual o'qish va multimodal matnlar bilan ishlash - matn turini, uslubini, axborot manbaini anglashga qaratilgan topshiriqlar beriladi (masalan, interaktiv saytlardan, ommaviy axborot vositalaridan olingan matnlar).

2. Metakognitiv yondashuv - talabalar o'z o'qish faoliyatini rejalashtiradi, baholaydi, to'g'rilaydi. Bunda refleksiya metodlari muhim o'rin tutadi.

3. CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli - ayniqsa, Yevropada, xorijiy tilda fanlarni o'qitish orqali o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda qo'llaniladi.

4. Dialogik o'qish yondashuvi - o'qilgan matn asosida guruhlarda muhokama qilish, savollar tuzish va yechimlarni ishlab chiqish faoliyatiga yo'naltirilgan.

AQSh tajribasida esa "Close Reading" yondashuvi keng tarqalgan bo'lib, bu usul matnga chuqur kirib borish, so'z tanlovi, gap tuzilishi, muallif niyati va mavzu asosida tushunchalarni yoritishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv bo'yicha D. Fisher va N. Freylarning tadqiqotlari e'tiborga molikdir.

Bundan tashqari, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlar o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda kritik savodxonlik (critical literacy) yondashuvini asos qilib olgan bo'lib, bunda matnni tanqidiy tahlil qilish va ijtimoiy-kulturologik kontekstda anglash alohida urg'ulanadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridan so'ng xorijiy tillar, xususan, rus tilini o'qitish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Rus tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha ayrim ilmiy va metodik izlanishlar:

Xorijiy va milliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qish kompetensiyasini samarali shakllantirish interaktiv va kontekstual metodlar, dialogik muhit, matn ustida reflektiv faoliyat orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston amaliyotida hali bu tajribalar to'liq joriy qilinmagan bo'lib, talabalarda o'qish kompetensiyasini chuqurlashtirishda xorijiy ilg'or yondashuvlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro va milliy tajribalarning chuqur tahlili o'qish kompetensiyasini shakllantirishda qo'llanilayotgan yondashuvlar rang-barangligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim metodologiyasi talabalarni mustaqil axborot izlashga, matnlar bilan faol ishlashga, o'qilgan materialni tahlil qilishga va uni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga yo'naltirilgan. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'qish kompetensiyasi nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy, kognitiv va kommunikativ ko'nikmalarning birligi sifatida qaralmoqda.

Misol uchun, Yevropa Ittifoqining CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjatlarida o'qish ko'nikmalari aniq bosqichlarga ajratilgan bo'lib, A1 darajasidan

C2 darajasigacha bo'lgan malaka tavsiflari aniqlangan. Ushbu standart o'qish kompetensiyasining rivojlanishida bosqichma-bosqich yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Bu tizimda o'qish faqat lingvistik dekodlash emas, balki matnni ijtimoiy kontekstda anglash, baholash, tushuntirish, taxmin qilish, muloqotga kirishish kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Finlyandiya tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Bu mamlakatda o'quvchilar har bir matnni faqat semantik mazmunda emas, balki axloqiy, madaniy, tarixiy jihatdan ham tahlil qilishga o'rgatiladi. Har bir darsda savollar, muhokamalar, hamkorlikda fikrlash, izohli o'qish (annotated reading) mashqlari orqali o'qish madaniyati shakllantiriladi. Pedagoglar shuningdek, o'qish harakatlarini modellashtirish (reading strategies modeling) orqali o'z tajribalarini ochiq namoyon qilishadi.

Kanadada esa "Think-aloud" texnikasi keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvda o'qituvchi matnni o'qib borarkan, o'z fikrini baland ovozda ifoda etadi - bu orqali talabalar o'qish paytida qanday tahliliy va interpretatsion strategiyalardan foydalanish mumkinligini bilib olishadi. Bu usul psixolingvistik tahlil, metakognitiv tafakkur va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yangi Zelandiyada esa o'quvchilarning o'qish tajribasini boyitish uchun kognitiv ko'mak (scaffolding) tamoyili asosida tashkil etilgan "Reading Recovery" dasturi mavjud bo'lib, unda har bir o'quvchining individual o'qish ehtiyoji tahlil qilinadi va unga mos strategiyalar ishlab chiqiladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi bu model o'qishdagi qiyinchiliklarni yengishda katta samaradorlik ko'rsatgan.

Xorijiy tajribaga nazar tashlansa, Finlyandiya o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda o'qish va fikrlashni integratsiyalashgan tarzda o'rgatish usuli qo'llaniladi. Talabalarga matn ustida ishlashda savol-javob, grafik tahlil, fikr xaritasi tuzish, asosiy va yordamchi g'oyalarni ajratish, shaxsiy fikr bildirish singari faoliyatlar beriladi. Ushbu yondashuv haqida fin tadqiqotchisi K. Sahlberg aytadi: "O'quvchilarni mustaqil o'qishdan matn asosida tanqidiy fikrlashga olib chiqish - Fin ta'limining asosiy ustunligidir".

AQShda esa o'qish kompetensiyasi "literacy skills" atamasi bilan kengroq ko'lamda tushuniladi. Bu yerda talabalarining informatsion savodxonligi, media matnlar bilan ishlash, matnlararo tahlil qilish ko'nikmalari ham o'qish kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Shu bois, dars jarayonida matnlarni ekranlashtirish, QR-kodli matnlar, podkastlar, vizual hikoyalar va videomateriallar orqali o'qish jarayoni multimodal shaklda tashkil qilinadi. Bu esa matnli tafakkurni vizual va eshitish elementlari bilan boyitadi. Ayni yondashuv Britaniya ham mavjud bo'lib, "critical literacy" tamoyili asosida o'qish - bu matnni baholash, muallif pozitsiyasini tushunish va unga nisbatan fikr bildirishdir.

Fransiyada o'qish kompetensiyasi lingvistik va madaniyatlararo yondashuv asosida shakllantiriladi. Talabalar matnlarni o'qishda nafaqat leksik va grammatik tafakkurni rivojlantiradi, balki madaniy kodlarni anglash, muallif madaniy nuqtai nazarini tushunish, boshqa tillardagi matnlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali kognitiv darajada o'sadi. O'qitish jarayonida "interculturel approche" asosida dars tashkil etiladi. Bu yondashuv bugungi kunda CLIL metodikasi bilan uyg'unlashgan holda keng qo'llanmoqda.

Endi O'zbekiston tajribasiga to'xtalsak, milliy ta'lim tizimida o'qish kompetensiyasini shakllantirishda bosqichma-bosqich yondashuv asosida ishlash an'anasi mavjud. O'zbek olimlaridan A.X.Jo'rayevaning fikricha, "O'qish kompetensiyasini shakllantirishda eng avvalo tilni o'zlashtirishdagi psixolingvistik omillar, matn tahlili va kommunikativ yondashuvlar uyg'unligi ta'minlanmog'i zarur". U matnlar asosida savol-javob, mantiqiy zanjir tuzish, ma'no xaritasi chizish kabi mashqlar orqali talabada nafaqat o'qish texnikasi, balki tushunish va tahlil qilish ko'nikmasi shakllanishini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Xalqaro tajriba va milliy tajribaning o'zaro solishtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi umumiy jihatlar asosiy omil sifatida e'tirof etiladi: multimodal matnlar bilan ishlash, o'qish jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi, refleksiya asosida fikr bildirish, muloqotli o'qish jarayoni va o'qituvchining yo'naltiruvchi roli. Farqli jihatlar esa, asosan, madaniy va metodik yondashuvlarda ko'zga tashlanadi. Xorijda

talabaga erkin tanlov imkoniyati kengroq bo'lsa, milliy ta'limda o'qituvchi tomonidan nazorat kuchliroqdir. Xorijiy tajribada matnlar ko'proq informatsion va kritik tafakkurni rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lsa, milliy tajribada didaktik va axloqiy-tarbiyaviy maqsad kuchliroq ifodalangan.

Umuman olganda, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda milliy va xorijiy tajribalarni integratsiyalash zarur. Ayniqsa, O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy CLIL, "peer discussion", "problem-based reading", "reflective tasks" kabi yondashuvlarni milliy madaniyatga moslashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada Respublikamizning turli oliy o'quv yurtlari qoshida olib borilayotgan eksperimentlar, yangi dasturlar va ilg'or o'qituvchilarning amaliy tajribalari shu integratsiyaning muvaffaqiyatli namunasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grabe W. *Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice*. Cambridge University Press. 2009.
2. Dörnyei Z. *Teaching and Researching Motivation*. Longman. 2001.
3. Nation I.S.P. *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. Routledge. 2009.
4. Fisher, D., & Frey, N. (2014). *Close Reading and Writing From Sources*. International Reading Association.
5. Comber, B. (2001). Critical literacy: A challenge for educators. *Australian Journal of Language and Literacy*, 24(3), 168-181.
6. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. - 273 p.
7. Sahlberg, Pasi. *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* - New York: Teachers College Press, 2011. - 183 p.
8. Pressley, M., Afflerbach, P. *Verbal protocols of reading: The nature of constructively responsive reading*. - Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1995. - 321 p.
9. Clay, Marie M. *Reading Recovery: A Guidebook for Teachers in Training*. - Portsmouth, NH: Heinemann, 2005. - 238 p.
10. Jo'rayeva A.X. *O'qish kompetensiyasini rivojlantirishda lingvometodik yondashuv*. - Toshkent: TDPU, 2021. - 128 b.